ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN
LANGUAGE & CULTURE

O‘ZBEKISTON

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Samixon Ashirboyev
O‘zbek adabiy tili va labial singarmonizm
(XX asrning 20-yillari munozarasidan) 6

Marhabo Umurzaqova
Dialektizmlar lisoniy shaxs ijtimoiy belgilarini aks ettiruvchi vosita sifatida 16

Muyassar Xolova
O‘zbek tili dialektal bazasini shakllantirish prognozi 36

Elyor Alimardanov
Xorazm dialektal zonasidagi o‘zbek va turkman shevalari izoglossalar tizimi (fonetik izoglassalar) 31

Akbarali Boymirzayev
Talabalarning grammatik bilimini baholashda testdan foydalanish 41

Uzbekistan: Language and Culture 2025/1
ISSN 2181-922X 6 — 15

Shevashunoslik
Dialechtology

O‘zbek adabiy tili va labial singarmonizm
(XX asrning 20-yillari munozarasidan)

Ashirboyev Samixon[1]

Abstrakt. O‘zbek dialektologiyasining XX asr boshlaridagi vaziyati kam o‘rganilgan. Bu davrda hali o‘zbek tilshunosligi shakllanib ulgurmagan edi. Bu fikrni o‘zbek dialektologiyasiga nisbatan ham qo‘llash mumkin. Ayniqsa, o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash masalasi muhim bo‘lib turar edi. Bu masalaning hal qilinishi har jihatdan shu davrdagi o‘zbek shevalarining yetakchilik mavqeyini o‘rnatishga bog‘lik bo‘lgan va turli shevalardan olingan ma’lumotlar vaqtli matbuot sahifalarida qizg‘in munozara qilingan. Shunday munozaralardan biri o‘zbek adabiy tilida lab garmoniyasini joriy etish bo‘lgan. Bu borada o‘sha davr olimlari, jadidlar faollik ko‘rsatganligi barchaga ma’lum. Jumladan, Amir Najib, A. Fitrat, Q. Ramazon, A.Yo‘ldosh, Elbek va boshqalar lab garmoniyasining o‘zbek tilidagi xususiyatini tavsiflaganlar va uni adabiy tilda aks ettirish masalasi bo‘yicha o‘z nuqtayi nazarlarini bayon qilganlar. Shulardan biri Miyon Buzruk bo‘lib, u “lab ohoni” qonunining turkiy tillarda va o‘zbek tilida qo‘llanishi tarixini o‘rgangan holda, bu qonun o‘zbek adabiy tilining bir qonuni bo‘la olmasligini isbotlashga uringan va e’tiborli fikrlarni bayon qilgan. Uning barcha fikrlari faktik materiallarga asoslanganligi bilan ajralib turadi.

Kalit so‘zlar*: dialektologiya, o‘zbek adabiy tili, sheva, singarmonizm, labial singarmonizm, tafarruot, “ingichkalashish” “lab garmoniyasidan chekinish”, “tilga yengillik berish”.*

Kirish. O‘zbek tili turkiy tillardan biri sifatida bu til oilasiga xos xususiyatlarni aks ettiradi. Shunday umumiylikka ega bo‘lgan til hodisalaridan biri singarmonizm qonunidir. Bu qonun hozirgi o‘zbek adabiy tilimizda qabul qilinmagan bo‘lsa-da, Toshkent shahri va Farg‘ona vodiysidagi ayrim shevalar hamda kam sonli boshqa shev-

[1] *Samixon Ashirboyev* **–** filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
Iqtibos uchun: *Samixon Ashirboyev* 2025. “*O‘zbek adabiy tili va labial singarmonizm (XX asrning 20-yillari munozarasidan)*”. *O‘zbekiston: til va madaniyat.* Folklorshunoslik. Shevashunoslik 1: 6 – 21.

alarimizdagina amal qilmoqda. Bu qonun qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarimizning aksariyat shevalarida “temir qonun” bo‘lib, hamon qo‘llanib kelmoqda. Ma’lumki, turkiy tillarda ham, o‘zbek tilida ham singarmonizmning ikki turi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Tanglay garmoniyasi turkiy tillarda qonun sifatida amal qilishi dunyo e’tirofini olgan, lekin lab garmoniyasining qo‘llanishi bo‘yicha bu fikrni aytish qiyin, chunki bu qonun barcha turkiy tillarda birday namoyon bo‘la olmayddi. To‘g‘ri, bu qonun hozirgi qirg‘iz va bir qator turkiy tillarda asosiy fonetik qonun sifatida e’tirof etiladi, lekin uning o‘zbek tilidagi qo‘llanishi chegaralangan va u o‘zbek tilining fonetik qonuni darajasida emasligi ma’lum. Biroq o‘tgan asrning 20-yillarida o‘zbek adabiy tilining me’yorlari masalasidagi munozaralarda uning o‘rnini belgilashga ham intilishlar bo‘ldi. Davr olimlari, jadidlarning bir guruhi til tarixi ma’lumotlari asosida uni yoqlab chiqdidar, yana birlari esa uning davr o‘zbek tilida, shevalarimizda o‘z o‘rnini yo‘qotganligini (qisman saqlab qolinganini ham) asoslab chiqdilar. Bunday fikr yurituvchilar safiga Miyon Buzrukni kiritish mumkin.

Asosiy qism. O‘zbek adabiy tilining hayotimizdagi o‘rnini belgilash uchun uning o‘ziga xos xususiyatlari mohiyatini yoritish o‘tgan asrning 20-yillarida dolzarb muammolardan asosiysi bo‘lgan. Bu jarayonda jadidlar faollik ko‘rsatishgan va o‘zini savodxon hisoblagan vakillarimiz ham o‘z fikrlarini matbuotda bayon qilishgan. Bu ishda davlat rahbarlari - O.Hoshimov, N. To‘raqulovlar ham qatnashganlar. Davrning tilshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha maxsus tadqiqot ham yaratildiki, unda bosh yo‘nalish imlo masalasi bo‘lgan[Azimov, 2021].

Miyon Buzruk faol tilshunos sifatida davr tilshunosligidagi muammolarni ko‘tarib chiqqan. Ayniqsa, uning o‘zbek tilining asl xususiyatlari to‘g‘risida ilgari surgan fikrlari e’tiborlidir. Ayn o‘rinda tilning sofligi to‘g‘risida bildirgan fikrlari alohida muhokama ob’ekti bo‘lishi kerak. Bu borada uning “Sharq haqiqati”gazetasining 1929 yil 6-sonida e’lon qilgan “Yangi adabiy til uchun asoslar” ruknida “Adabiy til va istiloh” maqolasi muhimdir. Bu maqolada u adabiy tildagi o‘zlashmalar, grammatik shakl (sig‘a), affiksatsiya (odot), qo‘shma so‘z (tarkib), terminlar (istiloh), shevalarga munosabat masalalarini munozara qilganki, bu fikrlar maxsus yoritilishi maqsadga muvofiqdir.

Bu ishda uning “Sharq haqiqati” gazetasining 1929 yil 25-sonida chop etgan ikki maqolasi – “Lab ohoni” va “Yana lab ohoni” maqolalarida ilgari surgan g‘oyalarini tahlil qilamiz. Bu maqolalardan faqat “Yana lab ohoni” maqolasi tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Alijonov tomonidan keltiriladi, lekin unga tahlil berilmay-

di[Alijonov, oyina.uz].

Miyon Buzrukning lab garmoniyasi to‘g‘risidagi qarashlarini va amaliy fikrlarini tahlil qilishdan avval bu qonunning o‘zbek tili va uning shevalarida amal qilishi to‘g‘risida fikr bildirishni lozim topamiz. Dialektologik adabiyotlarda lablangan unlilarga turli darajada munosabat bildirilgan. V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar shevalarda **o, ө, u, ү, ɔ** lablangan unlilarini ko‘rsatadilar[Решетов v.b, 1978; 45]. Shu mualliflardan biri ɔ unlisini lablanmagan deb ham qat’iy aytadi[Шаабдурахманов, 1983; 48]. Bu masalada muammo **ɔ** unlisining qaysi shevalarda lablanganligidir. Ma’lumki, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida bu unli (adabiy tilda **o** unlisi) lalanmagan deyiladi-da, yana adabiy til va shahar shevalarida (Samarqand-Buxoro)[Ҳозирги ўзбек адабий тили, 1980; 51] lablangan deb ko‘rsatiladi. S. Otamirzaeva Namangan shahar shevasida lab garmoniyasiga qat’iy amal qilinishi to‘g‘risida fikr bayon qilgan[Атамирзаева, 1974; 15]. Demak, singarmonizmning bu turi shevalarimizda u yoki bu darajada bor, lekin bu qonun ko‘pincha dastlabki ikki bo‘g‘inda saqlanadi[Ashirboyev, 2021; 39].

Miyon Buzrukning lab garmoniyasi tarixiga oid tahlillari. Aftidan, Miyon Buzruk qadimgi turkiy til tarixi va turkiy tillar, o‘zbek tili tarixi xususiyatlari bilan tanish bo‘lgan. Shuning uchun ham bu maqolasida “O‘rxun yozuvlari”, “O‘g‘uz dostoni”, “Uyg‘urcha”, “Chig‘atoycha”, “O‘zbekcha” kabi istilohlarni uchratamiz va ular o‘ziga yarasha tahlil qilingan. Shuni aytish lozimki, lab garmoniyasi qonuni barcha turkiy tillarda va tarixiy yodgorliklarda birday amal qilmagan va qilmaydi, lekin u yoki bu darajada uning qo‘llanishini kuzatish mumkin. Faqat bu qonun qirg‘iz tilida o‘ziga xos qat’iyatlik bilan amal qiladiki, shuning uchun ham u areal lingvistikada labial singarmonizmning innovatsion markazi deb yuritiladi[Гаджиева, 1975; 210. // Ashirboyev, 2023; 61]. Ko‘rinadiki, Miyon Buzruk ham labial singarmonizmning qo‘llanish tarixidan, uning amal qilishi bilan bog‘liq ma’lumotlardan anchagina xabardor.

Miyon Buzruk lab singarmonizmi nazariyasi bilan bog‘liq fikrlarni bayon qilmaydi, balki manbalarda bu hodisaning aks etilishiga e’tibor qaratadi va unga o‘zi yashagan davr adabiy tilida lab garmoniyasining bo‘lmasligi g‘oyasini isbotlash uchun zarur bo‘lganligi uchun murojaat qilgan. To‘g‘ri, Miyon Buzruk manbalarni tizimli tahlil qilmaydi, lekin keltirgan faktlarida haqiqat yo‘q emas. Jumladan, “o‘rxun yozuvi”dan deb keltirgan نوچوا ,كولوبـ ,كورتـ ,غنودوبـ (*budunug‘, turuk, uchun*) kabi misollari to‘g‘ri tanlangan. Qadimgi turkiy matnlarni transkripsiyasi chog‘ida keyingi davr turkologlari lab garmoniyasini saqlab bu ishni amalga oshirishgan[Абдураҳмонов v.b, 1982; 71-143.//Орхонские надписи, 2001]. Ammo Miyon Buz-

ruk lab garmoniyasining *-mish, -lig‘, -lik* affikslarida amal qilmasligi hamda *to‘pasinda (tepasida), tutib* kabi ba’zi o‘rinlarda bu qonun buzilishini ko‘rsatadi.

“O‘g‘uznoma” matnidagi so‘zlarning asosida (u o‘zagida deb ishlatadi) ham, qo‘shimchalarda ham lab garmoniyasiga rioya qilinishini payqagan. Bunga *ko‘ruklukruk* (كوركولكورك) so‘zini keltiradi va uni hozirgi tilda *ko‘riklikrak* tarzida yozuvda bo‘ladi deb tushuntiradi. Bu asarda ham lab garmoniyasidan *bo‘ldi, ko‘rdi, turdi* kabi so‘zlarda chekinishi mumkinligini keltirgan.

Miyon Buzruk qadimgi uyg‘ur tilida (uni *eski uyg‘ur* deb yuritadi) va hozirgi (XX asr boshlari ko‘zda tutilgan) tilida (uni *shevasida* deb yozadi) ham lab garmoniyasiga rioya qilinganini ko‘rsatadi. “Uyg‘urcha”ning (uyg‘ur tili) qadimgi yodgorligi sifatida “Devonu lug‘atit turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarini tilga oladi. Bu fikr bir tomonlama ekanligi bugungi olimlarimizga ma’lum. Ayniqsa, “Qutadg‘u bilig”da turkiy yozuv sifatida uyg‘ur yozuvining Mahmud Koshg‘ariy tomonidan aytilishi va uning uyg‘ur yozuvidagi nusxasi Miyon Buzrukni shunday fikrlashga olib kelgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Biz uchun uning keltirgan misollari ahamiyatli va ularni tahlil qilish lozim bo‘ladi. Biz avvalo, uningcha, lab garmoniyasi buzilgan deb ko‘rsatgan so‘zlarini keltiramiz va uni keyingi davrda tayyorlangan asarlardagi misollar bilan qiyoslashga harakat qilamiz. Miyon Buzruk “Devonu lug‘atit turk”dan زيدلويِ, روشەركوك, بشقوت (*to‘qishib, kukirishib, yulduz*) so‘zlarida, “Qutadg‘u bilig”dan keltirgan بيلا, ىدگوا, ىدلويِ (*bo‘ldi, o‘gdi, olib*) so‘zlarida bu qoida amal qilmaganini keltiradi. Shuni ta’kidlash joizki, “Devonu lug‘atit turk”dagi so‘zlarni transkripsiya qiluvchilar lab garmoniyasi saqlanishi lozim bo‘lgan o‘rinlarda unga rioya qilishgan[Маҳмуд Кошғарий, 2017; 37-38]. “Qutadg‘u bilig”da ham ikkinchi, ba’zan uchinchi bo‘g‘inda lab garmoniyasi saqlangan. Masalan:

Төрүттүң түмән миң бу сансыз тириг
Йазы тағ‘ тэңиз күтки обры йэриг [Юсуф хос Ҳожиб, 1972; 66].

“Hibatul haqoyiq”da (uni-da uyg‘ur yodgorligi deb yuritadi) ham to‘liq rioya qilinishi, lekin ليگروك (ko‘rgil) so‘zidagina buzilishini keltiradi. Albatta, bu yagona fakt asarda lab garmoniyasidan chekinish borligini anglatishiga qo‘shilish qiyin, u xattot kamchiligi ham bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Shuningdek, qozoq tilida 100 foyiz, Alisher Navoiy asarlari tili, umuman, tilimiz tarixida bu qonun amal qilganini, Ahmad Yassaviy asarlarida kuchsiz rioya borligini, ayni o‘rinda “Yusuf va Zulayxo”, “Shayboniynoma”da rioya qilinmaganligini aytadi. Shu bilan birga, bu qonunning omma tilida, ya’ni Toshkent va atrof shevalari, Farg‘onada rioya qilinmacligini, faqat Namangan

shevasidagina biroz mavjudligini qayd qiladi. Aslida yuqorida qayd qilganimizdek, Namangan shahar shevasida qonun sifatida amal qiladi. Bu fikrni hozirgi tadqiqotchilar ham tasdiqlaydilar[Дарвишев, 2019; 72].

Miyon Buzrukning "ingichkalashish" tushunchasi. Bu o'ziga xos termin Miyon Buzruk tomonidan lab garmoniyasidan voz kechishni ifoda qiladi. Aniqroq qilib aytganda, avvalgi bo'g'inda lablangan, ya'ni **o (o'), u (u)** unlilarini tor (uningcha, ingichka), ya'ni **ï, i** unlilari bilan almashtirish ko'zda tutilgan. Buni quyidagi fikrlari bilan asoslamoqchi bo'ladi:

uningcha, "lab ohoni"ning buzilishiga Ahmad Yassaviy zamonidan boshlab yo'l ochila boshlagan;

o'zbek, uyg'ur, va qozoq tillari hozirgi kunda "an'anaviy" til holida qolib ketmagan. Buning natijasi o'laroq bu qonunga "amal qilmaslik holati tug'ilgan". Miyon Buzrukning bu fikrlari keyingi davr asarlarida tasdiqlanadi, Hozirgi o'zbek tili fonetikaci yoritilgan ishlarda lab garmoniyasining amal qilishi to'g'risida mukammal bilim berilmayotir, faqat uning qoidasi eslatiladi, lekin misollar to'g'ri keltirilmaydi[Sayfullayeva v.b., 2009; 66]. Shunday bo'lsa-da, lab garmoniyasining o'zbek adabiy tilida qonuniyat sifatida amal qilmasligini anglashga imkon tug'iladi. A. Kaydarov zamonaviy uyg'ur tilida *asos* (lablangan unlili) + *affiks* tuzilmasida lab garmoniyasining buzilishini ko'rsatadi[Кайдаров, htpps://tilachar]. Hozirgi qozoq tilida ham lab garmoniyasi qonuniyat sifatida amal qilmaydi[Мырзабеков, 1999; 140-148].

Miyon Buzruk "omma tili"da, ya'ni o'tgan asrning 20-yillarida aksariyat o'zbek shevalarida yo'qolganini "bir takomil", "til uchun go'zallik" deb yuritadi. Bu fikrlar asos e'tibori bilan reallikni aks ettirmaydi, chunki turkiy tillar va ularning aksariyat shevalarida lab garmoniyasining amal qilishi to'g'risida fikrlar anchagina, demak, fikr bir tomonlama aytilmoqda. Shu bilan birga, uning bu fikrini e'tiborga olish kerakka o'xshaydi ham, ya'ni tildagi har qanday o'zgarishni uning takomillashuvi hamda tilning go'zalligi deb tushunadiki, bu fikrni qadrlash mumkin, chunki har qanday tilning, shevaning turli davrdagi ko'rinishi uning go'zalligi ekanligini, qolaversa, uni har bir tilning o'z egalari ko'ra olishi uning ma'naviy qiyofasini belgilashini unutmasligimiz kerak.

Miyon Buzruk "lab ohoni" to'g'risidagi maqolasida shu qonunning xususiyatlarini izohlashni maqsad qilib qo'ymagan, balki 20-yillardagi o'zbek adabiy tilining normalarini belgilash jarayonida uni tilga oladi va shu ma'noda u lab garmoniyasining ayrim shevalarimizda saqlanib qolishidan qat'iy nazar, bu qonunni adabiy tilda qo'llashga qarshi ekanligi bilan bog'liq ravishda aytilgan. Uningcha,

adabiy tilda “ingichkalashish” tamoyili hisobga olinishi lozim. Shuningdek, lab garmoniyasi qisman qabul qilinsa ham, uning aksariyat shevalardagi (omma tilida) “yo‘qliq tarafi qabul qilinsin”, degan g‘oyasiga muvofiq kelar edi.

Miyon Buzrukning bu maqolasidagi qarashlarga, aftidan, biroz e’tirozlar bo‘lgan. Bu maqolalardagi tanqidiy qarashlarga asosli javob berish va bu boradagi ilmiy yechimlarga munosabat bildirish, “lab ohoni”ni adabiy tilda joriy etish bilan bog‘liq fikrlarini bayon qilish hamda avvalgi maqoladagi qo‘yilgan masalaning “anglanmaslik sababi”dan ikkinchi maqola bilan murojaat qilganligini ma’lum qiladi va uni “Yana lab ohoni” deb ataydi. Bu maqola boshidayoq u munozarachilarga e’tiroz bildirib, “asosda bir fikrga kelmay туриб, *мақаррyомg‘*a o‘tib, ikir-chikir qoidalar tuzmak” chigallikni yuzaga keltirgani bosh omil bo‘ldi”, - deb ko‘rsatadi.

Bu maqolaning oltita (6) o‘rnida *tafarruot* so‘zini ishlatadi. Bu so‘zda Miyon Buzruk nimani ko‘zda tutganini anglash mushkullik tug‘dirdi. Bu so‘zda *bir nasaning butun nozikliklari, tafsilotlari, tafovut* kabi ma’nolari borligi keyingi davrda e’lon qilingan bir lug‘atdagina berilibdi[Атаниязова, https://owww.reseachgate net]. Bizning nazarimizda, bu so‘z Miyon Buzruk tomonidan lab garmoniyasining nazariy tafsilotlari ma’nosiga yaqin ma’noda qo‘llanganligi ravshanlashganday bo‘ldi. Bunday tushunilishini uning tanqidchilarga bildirgan e’tirozli fikrlaridan payqab olish mumkin, ya’ni maqolada “asosda bir fikrga kelmay turib, tafarruotg‘a o‘tib, ikir-chikir qoidalar tuzmoq”, “masalaning taffaruotig‘a sho‘ng‘ib ketadi”, “bizcha masalaning taffaruotini bir tarafga surib qo‘yib”, “... asosi yeshilmagancha va unda belgili bir sababga suyanib prinsip tutilmag‘ancha tafarruotini qulaylik ila hal qilish mumkin emas”, “... asosdan ko‘z yumib tafarruotg‘a o‘taverish ham asl masalani chigallashtirish va qiyinliq ustiga qiyinliq yaratishdan boshqa natija bermasa kerak”. Gap endi Miyon Buzrukning qaysi fikriga tafarruot to‘sqinlik qilyapti degan masalani hal qilib olish zarur bo‘ladi. Buni u lab garamoniyasi uchun asos, prinsip (shu so‘zni qo‘llaydi) degan tushunchadan foydalanadi. Bunday asosning ikki turi haqida fikr yuritadi:

- lab garmoniyasi to‘g‘risida fikr yuritganlar (ular yuqorida ko‘rsatildi) turkiy tillar qoidalari asosida o‘zbek tilida bu qonunning mavjudligini e’tirof etish;

- o‘zbek tilining tarixini emas, balki hozirgi (20-yillar) davrdagi taraqqiy etgan holatini ko‘zda tutib, “lab ohoni”ga amal qilmaslik tarafini tutish kerak.

Bu maqolasida ham dastlab birinchi asos (tamoyil) tarafdorlari fikrlari tahlil qilinadi. Unga ko‘ra, tilimiz tarixi xususiyatlarini

hisobga olib, “lab ohoni”ni bor deyish. Uningcha, “lab ohoni”ni bor deb sanaydiganlar “an’anaga bog‘lanish” tufayli va “turkiy tillarni tubdan e’tiborg‘a olish” ni ko‘zda tutganligi shunday fikr yuritishga olib kelgan.

Albatta, Miyon Buzruk ikkinchi asosning ashaddiy tarafdori sifatida uni yoqlaydi. Bu maqolada o‘z tarfdorlari A. Yo‘ldosh va Elbeklar fikrlarida umumiylik borligini ham ta’kidlaydi. Haqiqatan ham, ular “lab ohoni”ning davr o‘zbek tilida o‘z xususiyatini yo‘qotganligi to‘g‘risida fikrlaganlar. A. Yo‘ldosh “lab ohoni”dan voz kechish grammatikamizni soddalashtirishga qo‘yilgan bir odim deb hisoblaydi[Йўлдош, 1929; №24. 25-26]. Elbek esa “lab ohoni” qirg‘iz, usmonli тurk shevalarida to‘liq saqlangan, lekin “… bunday xususiyat tilimizda sira yo‘q”[Elbek, 1929. //Xudoyberdiyev, 2024; 143] tarzida qat’iy aytadi. Bu fikr esa Miyon Buzrukka ma’qul tushgan.

Miyon Buzruk keyingi maqolasida “lab ohoni”ning “o‘zbek tilida yo‘qola borishi” tilning “bir takomilimi”, u “til qoidalariga qulaylik beradimi” degan savollarni qo‘yish bilan uning yo‘qligini asoslashga yana harakat qiladi. Buni asoslashda hatto tramvaydagi kattaqo‘rg‘onliklarning (ikki bekat suhbatini tinglabdi) nutqida faqat “so‘g‘un” so‘zidan boshqa biror so‘zda bu qonunga rioya qilgan so‘zdan foydalanmaganligini ham keltiradi.

Uningcha, lab garmoniyasidan chekinish tilga (so‘zlashuvga) yengillik beradi. Shuni aytish lozimki, bu maqolada lab garmoniyasining tilda yo‘qola borishinigina emas, balki analitik shakllarning sintetiklashgan variantini (*kelgan emas – kelganmas, o‘lturubturur - o‘tiripti*) ham takomil deb tushunadi. Ko‘rinadiki, u o‘zicha *tilning takomili* degan nazariyani yaratmoqchi bo‘ladi. Uning iddaosi har qanday qisqarish va yengillik tilning takomilidir.

Uningcha, tilda nima oz bo‘lsa, unga qarashli qoidalar ham, albatta, oz va yengil bo‘ladi, aksincha, qaysi narsa ko‘p bo‘lsa, unga tegishli qoidalar ham ko‘p va og‘ir bo‘ladi. Bu qoidani lab garmoniyasiga tatbiq etib, bu qonundan voz kechish bilan “ko‘p qoidalar tuzuv”dan qutulib qolishni hamda quyidagi ikki holatni (uningcha,“ehtiyoj”), ya’ni o‘zbekcha *uchun,o‘tru, ustun* so‘zlarida; chetdan kirgan *huquq, hujum, ulug‘* kabi yozilishini saqlab qolish lozim, chunki ularda qoida yo‘q deb hisoblaydi[1]. Bu masalada Miyon Buzruk haq edi.

Xulosa. Ko‘rinadiki, jadidlar, umuman, til, xususan, “lab ohoni” masalasida faol bo‘lganlar va o‘z nuqtayi nazarlarini ochiq yozishda namuna bo‘la olganlar. Shunisi e’tiborliki, ularning aksariyati o‘zbek adabiy tiliga tayanch bo‘lgan shevalarimizdagi lab gar-

[1] Миён Бузрук ўзининг фикрини инобатга олмаганларга танбиҳ ҳам бериб борадики, уларни бу мақолада келтиришни ўринли деб билмадик.

moniyasining kamayib borganini ko‘ra olishgan. Garchand rasmiy tan olingan bo‘lmasa-da, jadidlar inkor etgan lab garmoniyasi keyingi davr o‘zbek orfografiyasidan joy olmadi. Hozirgi ilmiy va o‘quv adabiyotlarimizda lab garmoniyasi nazariyasi o‘rganilsa-da, uning o‘zbek tilidagi qo‘llanishi ayrim so‘zlarda ikki bo‘g‘in doirasida qolib ketishi misollari beriladi, xolos. Ko‘rinadiki, bu masalada Miyon Buzruk g‘oyalari g‘olib kelmoqda.

Adabiyotlar

Ashirboyev S. 2023. *Areal lingvistika.* – Toshkent: Bookmanu print.

Azimov I. M. 2021. *XX asr boshlarida o‘zbek tilining rivojlanish yo‘nalishlari*. F.f.d., (DSc), diss … – Toshkent.

Атамирзаева С. 1974. *Экспериментально-фонетические исследование наманганского говора узбекского языка*. – Ташкент: Фан.

Абдураҳмонов Ғ. Рустамов А. 1982. *Қадимги туркий тил.* – Тошкент: Ўқитувчи.

Атаниязова М. *Муттоз адабиёт истилоҳлари қисқача изоҳли луғати.* – Нукус: Ilmpaz. https://owww.reseachgate net.

Алижонов М. *Катта қирғин даврида мақола ёзган Миёнбузрук Солиҳов*. oyina. Uz

Решетов В.В. 1978. Шоабдураҳмонов Ш. *Ўзбек диалектологияси*. – Тошкент:Ўқитувчи. (кирил алифбосидаги транскрипция).

Дарвишев И. 2019. *Ареал тилшунослик: жауби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хзусусиятлари.* – Тошкент: Наврўз.

Шаабдурахманов Ш. 1983. *Карлукское наречие узбекского языка*. – Ташкент: Фан.

Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1980. – Тошкент: Ўқитувчи.

Гаджиева Н.З. 1975. *Проблемы тюркской ареальной лингвистики*. – М.: Наука.

Орхонские надписи. 2001. *Кюль-Тегин. Бильге Каган. Тоньюкук*. – Алматы: ЗАО “Дәір”.

Маҳмуд Кошғарий. 2017. *Девону луғати-т-турк* (туркий сўзлар девони). – Тошкент.

Юсуф хос Ҳожиб. 1972. *Қутадғу билиг* (нашрга тайёрдовчи ва транскрипция қилувчи Қ. Каримов). –Тошкент: Фан.

Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusiva Z., Abuzalova M. 2009. *Hozirgi o‘zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan va texnologiya.

Кайдаров А. *Краткий грамматический очерк уйгурского языка / Фонетические закономерности уйгурского языка.* htpps://tilachar.

Йўлдош А. 1929. *Бир муҳим масалани ечиш олдидан.* Янги Фарғона.

Elbek. 1929. *Til-imlomiz ustida.* Qizil O‘zbekiston. 30-yanvar.

Xudoyberdiyev J. 2024. *O‘zbek tilidan singarmonizmning chiqarilishi.* – Toshkent: Bookmany print.

Uzbek literary language and labial synharmonism (From the discussion of the 1920s)

Ashirboyev Samixon[1]

Abstract. The situation of Uzbek dialectology at the beginning of the 20th century has been poorly studied. At that time, Uzbek linguistics had not yet been formed. This idea can also be applied to Uzbek dialectology. The issue of determining the base dialect of the Uzbek literary language was especially important. The solution of this issue depended in every way on establishing the leading position of the Uzbek dialects of that period, and information obtained from various dialects was hotly debated in the pages of the press of the time. One of such debates was the introduction of lip harmony in the Uzbek literary language. It is well known that scientists of that time, Jadids, were active in this regard. In particular, Amir Najib, A. Fitrat, Q. Ramazon, A. Yoldosh, Elbek and others described the nature of lip harmony in the Uzbek language and expressed their views on the issue of its reflection in the literary language. One of them is Miyon Buzruk, who, having studied the history of the use of the law of "lab honi" in Turkic languages and Uzbek, tried to prove that this law cannot be a law of the Uzbek literary language and expressed significant ideas. All his ideas are distinguished by the fact that they are based on factual materials.

Keywords: dialectology, Uzbek literary language, dialect, synharmonism, labial synharmonism, articulation, "thinning" "withdrawal from labial harmony", "giving lightness to the language".

References

Ashirboyev S. 2023. *Areal lingvistika.* – Toshkent: Bookmanu print.

Azimov I. M. 2021. *XX asr boshlarida o'zbek tilining rivojlanish yo'na lishlari*. F.f.d., (DSc), diss … – Toshkent.

Атамирзаева С. 1974. *Экспериментально-фонетические исследование наманганского говора узбекского языка*. – Ташкент: Фан.

[1]*Samikhon Ashirboyev* – Doctor of Philology, Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.
E-mail: samixon.ashirboyev@mail.ru
ORCID ID: 0000-0002-5202-6494
For citation: Samikhon Ashirboyev 2025. *"Uzbek literary language and labial synharmonism (from the discussion of the 20s of the XX century)".* Uzbekistan: language and culture. Folklore. Linguistics 1: 6 – 21.

Абдураҳмонов Ғ. Рустамов А. 1982. *Қадимги туркий тил*. – Тошкент: Ўқитувчи.
Атаниязова М. *Муттоз адабиёт истилоҳлари қисқача изоҳли луғати*. – Нукус: Ilmpaz. https://owww.reseachgate net.
Алижонов М. *Катта қирғин даврида мақола ёзган Миёнбузрук Солиҳов.* oyina. Uz
Решетов В.В. 1978. Шоабдураҳмонов Ш. *Ўзбек диалектологияси*. – Тошкент:Ўқитувчи. (кирил алифбосидаги транскрипция).
Дарвишев И. 2019. *Ареал тилшунослик: жауби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хзусусиятлари.* – Тошкент: Наврўз.
Шаабдурахманов Ш. 1983. *Карлукское наречие узбекского языка*. – Ташкент: Фан.
Ҳозирги ўзбек адабий тили. 1980. – Тошкент: Ўқитувчи.
Гаджиева Н.З. 1975. *Проблемы тюркской ареальной лингвистики*. – М.: Наука.
Орхонские надписи. 2001. *Кюль-Тегин. Бильге Каган. Тоньюкук.* – Алматы: ЗАО "Дәір".
Маҳмуд Кошғарий. 2017. *Девону луғати-т-турк* (туркий сўзлар девони). – Тошкент.
Юсуф хос Ҳожиб. 1972. *Қутадғу билиг* (нашрга тайёрдовчи ва транскрипция қилувчи Қ. Каримов). –Тошкент: Фан.
Sayfullayeva R., Menglliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusiva Z., Abuzalova M. 2009. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Fan va texnologiya.
Кайдаров А. *Краткий грамматический очерк уйгурского языка / Фонетические закономерности уйгурского языка.* https://tilachar.
Йўлдош А. 1929. *Бир муҳим масалани ечиш олдидан.* Янги Фарғона.
Elbek. 1929. *Til-imlomiz ustida.* Qizil O'zbekiston. 30-yanvar.
Xudoyberdiyev J. 2024. *O'zbek tilidan singarmonizmning chiqarilishi.* – Toshkent: Bookmany print.